ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 33
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

BOSQINCHILIK TUSHUNCHASI, XAVFLILIK DARAJASI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dauletbaeva Aynur Baxramovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakulteti 2-bosqich talabasi
E-mail: dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mol-mulkni talon-taroj qilish bilan bo‘liq jinoyatlardan biri bosqinchilik tushunchasi haqida, uning og‘irlashtiruvchi holatlari haqida ma‘lumot berilgan. Shuningdek, Germaniya jinoyat huquqida bosqinchilik jinoyati haqida chuqur o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *bosqinchilik, jinoyat, o‘g‘irlashtiruvchi holatlar, mol-mulk, talon-taroj.*

ПОНЯТИЕ АГРЕССИИ, СТЕПЕНЬ ОПАСНОСТИ И ОСОБЕННОСТИ

Даулетбаева Айнур Бахрамовна
Каракалпакский государственный университет имени Бердаха
студент 2-го курса юридического факультета

Аннотация: *В данной статье представлена информация о понятии разбоя, одного из преступлений, связанных с хищением имущества, и его отягчающих обстоятельствах. Также глубоко изучено преступление разбой в уголовном праве Германии.*

Ключевые слова: *разбой, преступление, кража, имущество, грабеж.*

THE CONCEPT OF INVASION, THE DEGREE OF DANGER AND CHARACTERISTICS

Dauletbaeva Aynur Bakhramovna
2nd year student of the Faculty of Law of
Karakalpak State University named after Berdakh

Abstract: *This article provides information on the concept of robbery, one of the crimes related to property theft, and its aggravating circumstances. The crime of robbery in German criminal law has also been thoroughly studied.*

Keywords: *robbery, crime, theft, property, robbery.*

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har bir shaxs mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqiga egadir.Ushbu huquqni iqtisodiy huquqlar toifasiga kiritamiz va bu huquqning ta‘minlanishi va muhofaza etilishi davlatning asosiy vazifasidir. Davlat yuqoridagi huquqni ta‘minlashi uchun bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, shaxslarning mulkini talon-taroj qilish sohasidagi jinoyatlarga bir qancha aniqliklar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyotining aosini har xil turdagi mulklar tashkil etadi va bundan ko‘zlangan maqsad esa fuqarolarning osoyishtaligi oshirishdir. Shuningdek, bozor munosabatlarini yanada takomillashtirish va bozorda halol raqobatni yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish, iste’molchilarning huquqlarini birinchi darajaga qo‘yish, iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish, tadbirkorlik va mehnat qilish huquqini erkinligini hech qanday to‘siqlarsiz amalga oshirilishini ta‘minlash davlatning zimmasidadir. O‘zbekiston Respublikasida mulkning xususiy mulk, ommaviy mulk kabi shakllari bo‘lib, ularning teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi, mulk huquqi daxlsizligi davlat tomonidan ta’minlanadi. Mulk qanday shaklda bo‘lmasin hechkim unga tajouz qilishi yoki talon-taroj qilishi mumkin emas, ya‘ni yuqorida keltirib o‘tilganidek mulk huquqi shaklidan qat‘iy nazar daxlsizdir. Ayniqsa, xususiy mulkning daxlsizligi Konstitutsiyamizda alohida e‘tirof etilgan. Mol-mulk egasi bo‘lgan shaxs o‘z mol-mulkidan qonunga xilof ravishda ayrilishi mumkin emas. Faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan vaziyatlarda va tartibdagina, shuningdek, sudning mulkdan mahrum etilishi haqida asoslangan qarori chiqqanidagina mulkdor shaxs mol-mulkidan mahrum etilishi mumkin.Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, Mulk huquqi bo‘lgan shaxs o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulkka nisbatan o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi [1]. Mol-mulkdan foydalanayotgan shaxs, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya etishi, unga ziyon yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyatning va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini hurmat qilishi va ularning daxlsizligini buzmasligi lozim.

Mol-mulkni talon-taroj qilishning har xil turlari mavjud bo‘lib, ularning har biri Jinoyat Kodeksida o‘z ifodasini topgan. Bundan shuni ko‘rishimiz mumkin, mulkni talon-taroj qilish bilan bog‘liq harakatlar jinoyat sanaladi va bunday qilmishni sodir etgan shaxslar javobgarlikka tortiladi. Mol-mulkni talon-taroj qilishning o‘ziga xos va eng xavfli turlaridan biri bosqinchilik hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 164-moddasiga ko‘ra bosqinchilik jinoyati - o‘zga shaxsga tegishli bo‘lgan mol-mulkni talon-toroj qilish maqsadini ko‘zlab hujum qilishi, o‘zga shaxsning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan usullarda zo‘rlik ishlatishi yoki shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitishi orqali sodir etiladi va ushbu modda bilan jinoiy

javobgarlikka tortiladi [2]. Bosqinchilik jinoyatining zaruriy belgilari bo‘lib, ulardan biri shaxsta talon-taroj qilish maqsadi bo‘lishi lozim, shuningdek hujum qilishi, zo‘rlik ishlatishi yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitgan bo‘lishi kerak. Eng xavfli jinoyatlardan biri sifatida e‘tirof etilishi uning ijtimoiy xavfliligi bilan bog‘liq, ya‘ni birinchidan, shaxsning mulkiga ikkinchidan, hujum qilish vaqtida hayoti yoki sog‘lig‘iga ziyon yetadi.

Huquqshunos M.H.Rustambaevning fikricha, hujum deganda – qonunga zid ravishda ochiqdan yoki yashirincha mulkdorga yoki unga qarshilik ko‘rsatayotgan uchinchi shaxslarga qarata zo‘rlik ishlatish deb ta‘rif beradi. Zo‘rlik tushunchasini quyidagicha tushuntiradi hujum bilan bir vaqtda sodir bo‘lib, ruxiy yoki jismoniy bo‘lishi mumkin. Talon-taroj qilmoqchi bo‘lgan shaxs mulkdorning hayoti yoki sog‘lig‘iga zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilgandagina sodir etilgan hujumni bosqinchilik sifatida kvalifikatsiya qilish mumkin [3; B.275.].

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan:

- qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa narsalarni ishlatib sodir etilsa;
- bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilsa;
- ancha miqdordagi mulkni talon-toroj qilish bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lsa bular o‘g‘irlashtiruvchi holat deb kvalifikatsiya qilinadi.

Qurollar har xil bo‘lishi mumkin, o‘q otar, sovuq yoki portlovchi qurollar bo‘lishi mumkin yoxud qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan buyumlarga zanjir, tosh, to‘qmoq va boshqalalarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek qilmish faqat bir shaxs tomonidan emas, bir nechta shaxslar tomonidan ham sodir etilishi mumkin. Mazkur jinoyatni amalga oshirish uchun bir guruh shaxslar oldindan reja tuzib, kim qanday harakatni amalga oshirishini kelishib oladilar. Jinoyat huquqida ancha, ko‘p va juda ko‘p miqdor kabi tushunchalar bo‘lib, talon-taroj qilish ancha miqdorda sodir etilgan bo‘lsa JK 164-modda 2-qism "v" bandi bilan javobgarlikka tortiladi. Ancha miqdor – bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo‘lgan miqdor nazarda tutiladi [4].

164-moddaning uchinchi qismida quyidagicha o‘g‘irlashtiruvchi holatlar nazarda tutilgan:

- ✓ takroran, xavfli retsidivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 242-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- ✓ ko‘p miqdorda sodir etilsa;
- ✓ uy-joyga, omborxona yoki boshqa binolarga g‘ayriqonuniy ravishda kirgan holda sodir etilsa;

✓ badanga og‘ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa ushbu moddaning uchinchi qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat sodir etgan shaxs uni yana sodir etishi mumkin. Jinoyat sodir etishning bosqichlari takroran, jinoyatlar majmui yoki retsidiv ko‘rinishda bo‘lishi mumkin [5]. Takroran jinoyat sodir etish deganda – Jinoyat Kodeksi Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko‘rsatilgan holatlarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni shaxs turli vaqtlarda sodir etgan, ammo ularning birortasi uchun ham sudlangan bo‘lmasa, takroran jinoyat sodir etish deb topiladi. Tamom bo‘lgan jinoyat ham, jazoga sazovor bo‘lgan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish ham, shuningdek ishtirokchilikda jinoyat sodir etish ham takroran jinoyat sodir etishni tushunimiz lozim. Avval hukm qilingan jinoyatiga o‘xshash yangi jinoyatni sodir etgan, ushbu Kodeksda alohida ko‘rsatilgan holatlarda esa, Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi xavfli retsidiv jinoyat hisoblanadi. Jinoyat Kodeksi 242-moddasi "Jinoiy uyushma tashkil etish" deb nomlanadi. Ko‘p miqdor-bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo‘lgan miqdorni nazarda tutadi. Shuningdek, bosqinchilik faqat ko‘chada emas, shaxslarning yashash joylariga noqonuniy bostirib kirish orqali ham sodir etiladi. Badanga o‘g‘ir tan jarohati yetkazgan holda bosqinchilik harakati sodir etilsa ushbu moddaning uchinchi qismi "g" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

164-moddaning to‘rtinchi qismi quyidagi og‘irlashtiruvchi holatlarni nazarda tutadi:

- juda ko‘p miqdorda;
- o‘ta xavfli retsidivist tomonidan;
- uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa.

Juda ko‘p miqdor – bazaviy hisoblash mqdorining besh yuz va undan ortiq bo‘lgan baravari [6]. O‘ta xavfli retsidivist – besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan qasddan yangi jinoyat sodir etishgan shaxs bo‘lib, oldin sudlangan bo‘lishi lozim. Faqat sud tomonidan o‘ta xavfli retsidivist deb topilishi mumkin. Jinoyat bir uyushgan guruhlar tomonidan ham sodir etilib, bu og‘irlashtiruvchi holat hisoblanadi.

Bosqinchilik harakati xorijiy davlatlarda ham jinoyat sifatida tan olinadi. Xususan Germaniya Jinoyat Kodeksining 249-252-moddalari bosqinchilikka bag‘ishlangan. Germaniya Jinoyat Kodeksi 249-moddasi "Bosqinchilik" (nemischa-Raub) deb nomlanadi va quyidagicha ta‘rif beriladi: Kimki bir kishini jismoniy kuch ishlatish bilan yoxud kuch bilan tahdid qilish orqali mol-mulkni tortib olishga majbur

qilgan bo‘lsa, besh yildan kam bo‘lmagan ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llaniladi. 250-modda og‘irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Unga ko‘ra qilmish qurol, xavfli buyum yoki uyushgan guruh bilan bosqinchilik sodir etilsa, jazosi yanada og‘irlashadi deyilgan va 5 yildan 10 yilgacha jazo muddatlari belgilangan. Agarda bosqinchilik vaqtida jabrlanuvchi shaxs qasddan yoki ehtiyotsizlikdan o‘ldirilishidan qat‘iy nazar 251-modda bilan 10 yil yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Agar da talonchilik yoki o‘g‘irlikdan keyin ham jinoyatchi o‘lja bilan qochishga urinayotganda zo‘rlik ishlatsa yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilsa, bu ham bosqinchilik sifatida baholanadi va 252-modda bilan javobgarlikka tortiladi [7].

O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya o‘rtasidagi bosqinchilik jinoyati deyarli o‘xshash. Germaniya Jinoyat Kodeksida bosqinchilikning og‘irlashtiruvchi holatlari alohida modda bilan belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksini o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, o‘g‘irlashtiruvchi holatlar Germaniyaga solishtirganda ko‘proq va aniqroq berilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, bosqinchilik mol-mulkni talon-taroj qilish sohasidagi jinoyatlardan o‘zining ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi, sababi mulk bilan birga inson hayoti va sog‘lig‘iga katta xavf tug‘diradi. Bosqinchilikda, shuningdek hujum va zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish ham jinoyatni bosqinchilik deb topish uchun ham ahamiyatli. Qo‘shimcha yana shuni aytishimiz mumkin, Germaniya qonunchiligi bilan milliy qonunchiligimiz ko‘p jihatlari bilan o‘xshashdir, ular og‘irlashtiruvchi holatlar va sanksiyalar bilan farqlanadi. Germaniyada bosqinchilik jinoyati uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin, O‘zbekistonda bosqinchilik uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilmagan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023. https://lex.uz/docs/-6445145.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 22.09.1994. https://lex.uz/docs/-111453.
3. M.H.Rustambayev. "O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga sharhlar". Maxsus qism. T. "Adolat". 2016. B.275
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. VIII qism. 22.09.1994. https://lex.uz/docs/-111453.
5. S.SH.Utemuratova. Jınayat huquqı. Ulıwma bólim. T. Metodist nashriyoti.2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. VIII qism. 22.09.1994. https://lex.uz/docs/-111453.
7. Germaniya Jinoyat Kodeksi. 249-252-moddalar. https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/BJNR001270871.html.